TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

# O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА




TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent

https://insurance.tsue.uz

| № | MUNDARIJA | Page |
|---|---|---|
| 1. | *TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI*<br>*Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich* | 4 |
| 2. | *O‘ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH*<br>*Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna* | 8 |
| 3. | *ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS*<br>*Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna* | 12 |
| 4. | *QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI*<br>*Po‘latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo‘chqorov Muslimbek Bobojon o‘g‘li* | 16 |
| 5. | *SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILIY TA’MINOTI*<br>*Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o‘g‘li* | 19 |
| 6. | *SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH*<br>*Po‘latov Xudoyberdi Uktamovich* | 24 |
| 7. | *TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH*<br>*Ibragimov Mansur Mardonovich* | 27 |
| 8. | *KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI*<br>*Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o‘g‘li* | 30 |
| 9. | *XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH*<br>*Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi* | 33 |
| 10. | *MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH*<br>*Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o‘g‘li* | 37 |
| 11. | *KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH*<br>*Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg‘or Nazirovich* | 41 |
| 12. | *XIZMAT KO‘RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH*<br>*Po‘latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o‘g‘li* | 44 |
| 13. | *XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH*<br>*Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi* | 47 |
| 14. | *ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH*<br>*Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o‘g‘li* | 52 |
| 15. | *XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG‘LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH*<br>*Mahmudova Go‘zal Samadjon qizi* | 56 |
| 16 | *IQTISODIY O‘SISH BARQARORLIGINI TA’MINLOVCHI OMILLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)*<br>*Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich* | 61 |
| 17 | *ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ КАК ОСНОВА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ МОДЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ*<br>*Ким Татьяна Валерьевна* | 65 |
| 18 | *ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ ПО ВНЕДРЕНИЮ СИСТЕМЫ КОРЕЙСКОГО ФОНДА КРЕДИТНЫХ ГАРАНТИЙ*<br>*Рахманов Бекзод Ибрагимович* | 70 |

| | | |
|---|---|---|
| 19 | *TRANSPORT SUG‘URTASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH*<br>*Rustamov Sherzod Raxmataliyevich* | 74 |
| 20 | *RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG‘URTA SEKTORIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA ULARNI MILLIY SUG‘URTA TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI*<br>*Yakubova Nargiz Tursunbayevna* | 76 |
| 21 | *НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВОЙ ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА*<br>*Закирходжаева Ширин Акмаловна* | 80 |
| 22 | *THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE LOGISTICS INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY*<br>*Matiyazova Sanobar Rajabbayovna* | 84 |
| 23 | *O‘ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI*<br>*Mirzasalimova Ozoda To‘lqin qizi* | 88 |
| 24 | *O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI*<br>*Baratova Dinora Alisherovna* | 90 |
| 25 | *IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA XIZMAT KO‘RSATISH JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI*<br>*Ilhom Safarboyevich Shukurov* | 92 |
| 26 | *GLOBALLASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIK PIVOJLANISH QONUNIYATLAPI*<br>*Mamatova Fotima Abdusalomovna* | 96 |
| 27 | *NOMODDIY AKTIVLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFINI TAKOMILLASHTIRISH*<br>*Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Abdug‘ofurov Og‘abek Tolib o‘g‘li* | 99 |
| 28 | *MINTAQADA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI*<br>*Muxiddinov Tal’at Shaydullo o‘g‘li* | 103 |
| 29 | *MAMLAKATIMIZDA JORIY ETILAYOTGAN “XAVFSIZ SHAHAR” LOYIHASINING ASOSIY VAZIFALARI TAHLILI*<br>*Iminov Akbarjon Odiljon o‘g‘li* | 106 |
| 30 | *O‘ZBEKISTONDA PENSIYA SUG'URTASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI*<br>*Yoldoshova Aziza Muzaffar qizi* | 110 |
| 31 | *SUG‘URTA XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR AUDITINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI*<br>*Urozov Komil Bahromovich, Sharifov Davlatjon Nosirovich* | 113 |
| 32 | *SUG‘URTA TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA OMILLARI*<br>*Xolbayev Azamat Yuldashovich* | 117 |
| 33 | *SUG‘URTA XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR HISOBI VA AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH*<br>*Urozov Komil Bahromovich* | 122 |
| 34 | *ПРИМЕНЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ БАЗЫ И ИНТЕРНЕТ РЕСУРСОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ТЕМАТИКИ «СТАТИСТИКА ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ»*<br>*Сиддиков Алишер Журакулович, Зокирова Муниса Жамолиддин қизи* | 125 |
| 35 | *TA’LIM SIFATINING MEHNAT BOZORIDAGI BANDLIK DARAJASIGA TA’SIRI*<br>*Hamroyeva Dilso‘z Yahyoyevna, Ro‘ziyeva Shaxruza Sherali qizi* | 131 |
| 36 | *XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING NAZARIYASINI SHAKLLANISHI*<br>*Isakova Naima Ikromjonovna* | 134 |

| | | |
|---|---|---|
| 37 | *O‘ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASI ASOSIDA MINTAQAVIY SANOATLASHUVNI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI*<br>*Qosimova Hilola Jamshedovna* | 138 |
| 38 | *RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSURTECH TEXNOLOGIYALARINING SUG‘URTA BOZORI RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI*<br>*Xakimzoda Maftuna, Yusuf qizi* | 143 |
| 39 | *O‘ZBEKISTONDA TURIZM MARKETINGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH*<br>*Ikramova Nasiba Axmadovna* | 146 |
| 40 | *LOGISTIKA TIZIMLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA SUG‘URTA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH*<br>*Abduturapova Dildora Farxodjon qizi* | 149 |
| 41 | *SUG‘URTA BOZORINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI VA RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI*<br>*Djumaniyazov Shavkat Raximovich* | 151 |
| 42 | *O‘ZBEKISTON SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA BOJXONA MA’MURIYATCHILIGINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMI VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI*<br>*Matkarimova Iroda Muxtorovna* | 155 |
| 43 | *YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI*<br>*Yoqubova Fotimaxon Baxromjonovna* | 159 |
| 44 | *O‘ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDA ISLOM BANK XIZMATLARINI YO‘LGA QO‘YISHNING DOLZARBLIGI VA IKKILIK BANK TIZIMI*<br>*Sohibnazarov Abdurashid Abduvohidovich* | 162 |
| 45 | *O‘ZBEKISTONDA KIBERJINOYAT RISKLARINI STRTEGIK BOSHQARISHNI HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI*<br>*Xasanov Umidjon Yusupovich* | 167 |
| 46 | *CLOUD-BASED MANAGEMENT SYSTEMS AND THEIR IMPACT ON UNIVERSITY GOVERNANCE: A PROPOSED PLS-SEM FRAMEWORK FOR HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN*<br>*Olimjonov Abbosjon Olimjonovich* | 170 |
| 47 | *ПРОГНОЗНО-ПЛАНОВАЯ СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ КАДРОВ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОГО ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА И СБАЛАНСИРОВАННОСТИ РЫНКА ТРУДА*<br>*Холбаева Сабина Рустамовна* | 173 |
| 48 | *TURIZM IQTISODIYOTIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING ROLI*<br>*Jalolov Otabek Oybek o‘g‘li* | 177 |
| 49 | *MAHALLA TIZIMIDA MADANIY LOYIHALARNI BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN IJTIMOIY-IQTISODIY MODELI: JAMOATCHILIK ISHTIROKI, RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INSTITUTSIONAL ISHONCH YONDASHUVI*<br>*Umarova Roxilaxon Xaliljon qizi* | 181 |
| 50 | *KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA «YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY TALQINI*<br>*Aripov Oybek Abdullayevich* | 185 |

# “O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI


1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasi professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasi mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasi mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasi professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasi dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronons: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasi professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasi mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta’lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasi professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasi dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasi professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasi dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma’mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasi” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasi dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasi dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasi assistenti, PhD).




# O‘ZBEKISTONDA KIBERJINOYAT RISKLARINI STRTEGIK BOSHQARISHNI HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI

**Xasanov Umidjon Yusupovich**
*Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*
*E-mail: umidjonxasanov@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda kiberjinoyat risklarini strategik boshqarishning huquqiy asoslari tahlil qilingan. Kiberxavfsizlik sohasidagi milliy qonunchilik, normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro tajriba o‘rganilib, kiberjinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish mexanizmlarining samaradorligi baholangan. Tadqiqot natijalari kiberxavfsizlikni ta’minlash tizimini takomillashtirish, davlat organlari va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda risklarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlarini joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.
**Kalit so‘zlar:** boshqaruv, davlat boshqaruvi, xavfsizlik, raqamli boshqaruv, elektron hukumat, kiberjinoyat, strategik boshqaruv, kiber xavf, kibermakon.
**Abstract:** This article analyzes the legal foundations of strategic cybercrime risk management in Uzbekistan. The study examines national legislation, regulatory frameworks in the field of cybersecurity, and international best practices for combating cyber threats. The effectiveness of existing mechanisms for preventing and responding to cybercrime is evaluated. The findings highlight the need to improve the national cybersecurity system, strengthen cooperation between public institutions and the private sector, and implement modern risk management approaches. The study contributes to the development of effective legal and institutional mechanisms for enhancing cybersecurity and protecting digital infrastructure in Uzbekistan.
**Keywords:** governance, public administration, security, digital governance, e-government, cybercrime, strategic management, cyber risk, cyberspace.
**Абстрактный:** В данной статье проведен анализ правовых основ стратегического управления рисками киберпреступности в Узбекистане. Исследованы национальное законодательство, нормативно-правовые акты в сфере кибербезопасности, а также международный опыт противодействия киберугрозам. Оценена эффективность существующих механизмов предупреждения и борьбы с киберпреступностью. Результаты исследования показывают необходимость совершенствования системы обеспечения кибербезопасности, укрепления сотрудничества между государственными органами и частным сектором, а также внедрения современных подходов к управлению рисками.
**Ключевые слова:** управление, государственное управление, безопасность, цифровое управление, электронное правительство, киберпреступность, стратегическое управление, киберриски, киберпространство.

**Kirish (Введение/Introduction).**

Raqamli transformatsiyalashuv jarayonlarining so‘ngi yillardagi global iqtisodiy munosabatlar tizimida qo‘llanilishi, jumladan turli mamlakatlar amaliyotlariga raqamlashtirilgan iqtisodiy munosabatlar kirib borishining sezilarli darajada keskin tezlashuvi natijasida kiberjinoyatchilik global iqtisodiy va institusional barqarorlikka ta'sir etuvchi eng yuqori strategik tahdidlar qatorida tobora ustuvor ahmiyat kasb etib borayotganligi bilan bog‘liq tendensiyalar ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, davlat boshqaruvi, moliya, energetika, transport va mudofaa infratuzilmalarining raqamlashuvi kiberrisklarni oddiy texnik muammo emas, balki strategik boshqaruv kategoriyasi sifatida baholashni talab qilmoqda. Global darajadagi raqamli transformatsiyalashuv jaryonlarining jadallashuvi bugungi O‘zbekiston sharoitida raqamlashtirish, jumladan, “davlat boshqaruvini raqamli transformatsiyalash borasidagi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish”[1] da kiberjinoyatchilik bilan bog‘liq bo‘lgan strategik boshqaruv amaliyotini takomillashtirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030”[2] strategiyasi doirasidagi islohotlar mamlakatda elektron hukumat konsepsiyasi asosida milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlari raqamli transformatsiyalashuv jarayonlarini jadallashishi hisobiga kibermakondagi kiberjinoyatlar uchun shart-sharoitlar yaratilishiga sabab bo‘lishi bilan birgalikda, “kiberxavfsizlik sohasida davlat siyosati to‘g‘risida ishonchli va sifatli, ob'ektiv ma'lumotlarni taqdim etish orqali mamlakatning ijobiy imijini yaratish va uning xalqaro maydondagi obro‘sini mustahkamlash”[3] yo‘nalishidagi davlat dasturlari samaradorligini oshirish zaruriyatini uyg‘otmoqda. Bu esa bugungi sharoitda mamlakat davlat boshqaruvi tizimida kberjinoyat risklarini strategik boshqarish mexanizmini takomillashtirishning ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbligini tobora ortishiga olib kelmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).**

R.X. Xusanov, A.U. Anorboev, M.B. Husenov, I. Musaxonzoda, M. Samadqulov, SH.S. Shirinova kabi olimlar tomonidan kiberjinoyatchilikning iqtisodiy oqibatlari va unga qarshi kurashish choralari tahlili amalga oshirilib, mamlakat milliy xususiyatlari baholangan.

Shu bilan birgalikda, Yangi O‘zbekiston davlat boshqaruvi tizimida kiberjinoyat risklarini strategik boshqarish mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar kompleks tarzda, tizimli, maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida tahlil etilmagan. Muammoning dolzarbligi, iqtisodiy adabiyotda yetarlicha o‘rganilmaganligi, kutilayotgan ilmiy natijalarni ilmiy-amaliy ahamiyatga egaligi ushbu mavzuni tadqiqot ob'ekti sifatida tanlashga asos bo‘ldi.

**Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).**

Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda kiberjinoyat risklarini strategik boshqarishning huquqiy asoslarini tahlil qilish uchun sifat va miqdoriy tadqiqot usullaridan kompleks ravishda foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini huquqiy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va risklarni baholash usullari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida O‘zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlik va axborot xavfsizligi sohasiga oid qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlari o‘rganildi. Jumladan, kiberxavfsizlikni ta’minlash, axborot resurslarini himoya qilish va kiberjinoyatlarga qarshi kurashishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy bazaning mazmuni hamda amaliy ahamiyati tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil usuli qo‘llanilib, O‘zbekistonning kiberxavfsizlik sohasidagi huquqiy mexanizmlari

rivojlangan davlatlar tajribasi bilan taqqoslandi. Bunda xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar, kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro standartlar hamda ilg‘or xorijiy amaliyotlar o‘rganildi. [7]

Tadqiqotning empirik qismi ochiq statistik ma’lumotlar, davlat organlari hisobotlari, xalqaro reytinglar va ilmiy manbalarga asoslandi. Kiberjinoyatlar soni, ularning turlari, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari hamda kiberxavfsizlikka tahdid soluvchi asosiy omillar tahlil qilindi. Risklarni strategik boshqarish nuqtai nazaridan mavjud tahdidlar aniqlanib, ularning ehtimollik va ta’sir darajasi baholandi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida kiberjinoyat risklarini boshqarishning huquqiy, institutsional va tashkiliy elementlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik o‘rganildi. Natijada O‘zbekistonda kiberjinoyat risklarini samarali boshqarishga xizmat qiluvchi huquqiy mexanizmlarning amaldagi holati baholandi hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mazkur metodologiya kiberjinoyat risklarini strategik boshqarishning huquqiy asoslarini kompleks baholash, mavjud muammolarni aniqlash va milliy kiberxavfsizlik tizimini rivojlantirish istiqbollarini belgilash imkonini berdi.

**Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and rezults).**

O‘tkazilgan tahlillar bugungi O‘zbekiston davlat boshqaruvi tizimi amal qilishi sharoitida kiberjinoyat risklarini strategik boshqarishning huquqiy asoslari ko‘p bosqichli normativ-huquqiy bazalar orqali shakllanganligi ko‘rsatib, ular qatoriga konstitusiyaviy normalar, sohaviy qonunlar, jinoiy-huquqiy mexanizmlar hamda prezident va hukumat qarorlarini kiritish mumkinligini aniqlash imkonini berdi. [8] Umumiy holatda mamlakatda amal qilayotgan kiberjinoyat risklarini strategik boshqarish sohasiga aloqador bo‘lgan huquqiy asoslarni tizimli ravishda tahlil qilish (1-jadvalga qarang) orqali quyida keltirilgan tizimli ahamiyatga molik muammolar amaliyotda o‘z yechimini topmaganligini aniqladik:

riskka yo‘naltirilgan yondashuv barcha huquqiy-me'yoriy hujjatlarda bir xil darajada aks ettirilmagan;

idoralararo hamkorlik va axborot almashinuvining huquqiy mexanizmlari yanada mustahkamlashni talab qiladi;

zamonaviy kiberjinoyat shakllari (sun'iy intellekt orqali hujumlar, kriptovalyuta asosidagi firibgarlik, ransomware) uchun huquqiy me'yorlarni yangilash ehtiyoji mavjud;

milliy kiberxavfsizlik strategiyasida strategik risk-menejment modeli aniq belgilanmaganligi hisobiga kiberjinoyat risklarini strategik boshqarish sohasiga aloqador bo‘lgan amal qilayotgan huquqiy asoslar o‘rtasida o‘zaro qarama-qarshi va ziddiyatli holatlar mavjud bo‘lib, qabul qilinayotgan yangi huquqiy-me'yoriy xujjatlar bir vaqtning o‘zida bir birini rad etishi so‘nggi yillarda ko‘p kuzatilib, huquqiy asoslarni tizimli ravishdaa bir xil sxemalashtirish zaruriyatini vujudga keltiradi.

Shu o‘rinda tadqiqotlarni O‘zbekiston davlat boshqaruvi tizimida kiberjinoyat risklarini strategik boshqarish sohasiga aloqador bo‘lgan huquqiy asoslarning amal qilish xususiyatlarig qaratishni lozim topdik. Tahlillarga ko‘ra, mamlakatda davlat xavfsizligi, inson huquqlari va axborot xavfsizligini ta'minlashning fundamental huquqiy manbai

**1-jadval**

**O‘zbekiston davlat boshqaruvi tizimida kiberjinoyat risklarini strategik boshqarishning huquqiy asoslari**

| № | Huquqiy asoslar | Mazmuni | Kiberjinoyat risklarini strategik boshqarishdagi ahamiyati | Amaliy kamchiliklari |
|---|---|---|---|---|
| 1 | O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi | Axborot xavfsizligi, shaxsiy hayot daxlsizligi, davlat xavfsizligi kafolatlari | Kiberxavfsizlik sohasida davlat siyosatining konstitusiyaviy asosini belgilaydi | Kiberjinoyat risklarini boshqarish mexanizmlari bevosita belgilanmagan |
| 2 | “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonun | Kiberxavfsizlik sub'ektlari, infratuzilmalar himoyasi, insidentlarga javob berish tartibi | Davlat organlarida risk-menejment va kiber tahdidlarni oldini olishning huquqiy bazasini shakllantiradi | Amaliyotda institusional koordinasiya mexanizmlari to‘liq ishlamagan |
| 3 | “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonun | Axborot resurslari va tizimlaridan foydalanish munosabatlarini tartibga soladi | Davlat axborot tizimlarida xavfsizlik talablarini huquqiy jihatdan ta'minlaydi | Zamonaviy kiber tahdidlarga nisbatan ayrim normalar eskirgan |
| 4 | “Shaxsiy ma'lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun | Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tartibi | Davlat tizimlarida ma'lumotlar buzilishi risklarini kamaytirishga xizmat qiladi | Ma'lumotlar oqimi monitoringi bo‘yicha aniq standartlar yetarli emas |
| 5 | O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi | Kompyuter axboroti sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik | Kiberjinoyatlarga qarshi huquqiy ta'sir mexanizmini ta'minlaydi | Yangi turdagi kiberjinoyatlar (AI, kripto-frod) bo‘yicha normalar cheklangan |
| 6 | Prezident farmonlari va qarorlari | Raqamli transformasiya, elektron hukumat va axborot xavfsizligi choralari | Strategik boshqaruv va milliy kiberxavfsizlik siyosati yo‘nalishini belgilaydi | Ijro mexanizmi ba'zan fragmentar xarakterga ega |
| 7 | Vazirlar Mahkamasi qarorlari | Davlat axborot tizimlarini muhofaza qilish bo‘yicha tartiblar | Risklarni baholash va monitoring jarayonlarini institusionallashtiradi | Idoralararo integrasiya darajasi past bo‘lishi mumkin |
| 8 | Davlat xavfsizlik xizmati huzuridagi vakolatli kiberxavfsizlik tuzilmalari | Kiberinsidentlarni monitoring qilish va tahlil | Strategik risklarni erta aniqlash funksiyasini bajaradi | Ochiq statistika va shaffoflik cheklangan |

“O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi”[4] hisoblanib, ushbu me'yoriy xujjatda fuqarolarning shaxsiy hayoti daxlsizligi, axborotdan foydalanish huquqi hamda davlat tomonidan xavfsizlik kafolatlari belgilanganligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birgalikda, amaldagi Konstitusiyada kiberjinoyat risklarini strategik boshqarish tushunchasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifoda etilmaganligi mazkur sohada maxsus qonunchilikni rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqargan hisoblanadi. [9]

Mamlakatda kiberxavfsizlik sohasini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat sifatida “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”[5] gi Qonunni keltirib o‘tish mumkin bo‘ladi. Shuningdek, mazkur qonunning mamlakatdagi kiberjinoyat risklarini strategik boshqarish amaliyoti bilan bog‘liq mexnizmlar, jumladan, kiberhodisalarning oldini olish mexanizmini belgilashi, davlat axborot tizimlarida xavflarni baholash tartibini joriy etishi, muhim axborot infratuzilmalari muhofazasini huquqiy jihatdan mustahkamlashi va davlat organlari o‘rtasida kiberxavfsizlik sohasida hamkorlik asoslarini belgilashi kabi jihatlarni qamrab olganligi aniqlandi. [10] Mazkur qonunda davlat organlari, muhim axborot infratuzilmalari operatorlari va boshqa sub'ektlarning

vakolatlari hamda majburiyatlari bilan birgalikda, mamlakatda kiberxavfsizlikni ta'minlanishi quyidagi tamoyillarga asoslangan holatda tashkil etilishini belgilab bergilgan hisoblanadi:

- qonuniylik;
- kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishning ustuvorligi;
- kiberxavfsizlik sohasini tartibga solishga nisbatan yagona yondashuv;
- kiberxavfsizlik tizimini yaratishda mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirokining ustuvorligi;
- O‘zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlikni ta'minlashda xalqaro hamkorlik uchun ochiqligi”[5].

Shuningdek, qonunning mamlakatda kiberjinoyat risklarini strategik boshqarish amaliyotida qo‘llanilishida yuqorida keltirib o‘tilgan ijobiy jihatlar bilan birgalikda, uning amal qilishida idoralararo muvofiqlashtirish, axborot almashinuvi va texnik standartlarning bir xil emasligi kabi muammolar amaliy jihatdan hali to‘liq hal etilmaganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston sharoitida davlat organlarida fuqarolarga oid ma'lumotlarni himoya qilishning huquqiy ta'minoti “Shaxsga doir ma'lumotlar to‘g‘risida”[6] gi Qonun bilan amalga oshirilib, ushbu huquqiy asos davlat boshqaruvi tizimida kiberjinoyat risklarini kamaytirishga xizmat qilib, bu orqali ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi, buzilishi yoki o‘g‘irlanishining oldini olish mexanizmlarini shakllantiriladi. Jumladan, mazkur yo‘nlishdagi chora-tadbirlarni taashkil etilishi quyidagi tmoyillarga asoslangan holda amalga oshiriladi:

- inson va fuqaroning konstitusiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etish;
- shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish maqsadlari va usullarining qonuniyligi;
- shaxsga doir ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi;
- shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligi va himoya qilinganligi;
- sub'ektlar, mulkdorlar va operatorlar huquqlarining tengligi;
- shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligi[6].

**Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion)**.

Shu o‘rinda ta'kiidlash joizki, qonun davlat boshqaruvi tizimida kiberjinoyat risklarini kamaytirish bo‘yicha yuqorida keltirib o‘tilgan ijobiy natijalarni ta'minlaashida ma'lumotlarni kriptografik himoya qilish, transchegaraviy ma'lumot almashinuvi va monitoring bo‘yicha huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish zaruriyati yuqori darajada saqlanib qolayotganligini aniqlashga erishdik.

Demak, O‘zbekiston davlat boshqaruvi tizimida kiberjinoyat risklarini strategik boshqarishning huquqiy asoslarini tadqiq etish orqali mamlakatd ushbu huquqiy asoslarni amalga oshirilishini ta'minlashda ishtirok etuvchi institusional asoslar tarkibiy jihatdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, Ichki ishlar vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Kiberxavfsizlik markazi, Bosh prokuratura, Markaziy bank, Davlat organlarining axborot xavfsizligi bo‘linmalaridan tashkil topgan, degan xulosaga kelindi.

Tahlillarga ko‘ra, O‘zbekiston davlat boshqaruvi tizimida kiberjinoyat risklarini strategik boshqarishning institusional asoslari ko‘p bosqichli va funksional taqsimotga asoslangan mexanizm sifatida shakllangan bo‘lib, u siyosiy boshqaruv, huquqni muhofaza qilish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda axborot xavfsizligini ta'minlashga mas'ul davlat institutlarining o‘zaro hamkorligi orqali amalga oshiriladi. Mazkur institusional tizimning asosiy maqsadi davlat axborot resurslari, raqamli xizmatlar va muhim axborot infratuzilmalarini kibertahdidlardan muhofaza qilish hamda kiberjinoyatlar bilan bog‘liq risklarni minimallashtirishdan iborat hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat boshqaruvini raqamli transformasiya qilish va samaradorligini oshirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-68-son farmoyishi, 28.11.2025 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son farmoni, 05.10.2020 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining Kiberxavfsizlik strategiyasini belgilash va kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-38-son farmoni, 10.03.2026 y.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (Yangi taahriri), 01.05.2023 y.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi O‘RQ-764-son Qonuni, 15.04.2022 y.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma'lumotlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-547-son Qonuni, 02.07.2019 y.
7. Po‘latov Xudoyberdi Uktamovich. (2026). Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish. Insurance Market of Uzbekistan, 3(3), 24–26. https://doi.org/10.55439/INS/vol3_iss3/428
8. Baratova Dinora Alisherovna. (2026). O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini rivojlantirish istiqbollari. Insurance Market of Uzbekistan, 3(3), 90–91. https://doi.org/10.55439/INS/vol3_iss3/446
9. Urozov Komil Bahromovich, & Sharifov Davlatjon Nosirovich. (2026). Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlarda daromadlar auditini tashkil etish va takomillashtirish yo‘nalishlari. Insurance Market of Uzbekistan, 3(3), 113–116. https://doi.org/10.55439/INS/vol3_iss3/453
10. Isakova Naima Ikromjonovna. (2026). Xizmat ko‘rsatish korxonalarini rivojlantirishda marketing nazariyasini shakllanishi. Insurance Market of Uzbekistan, 3(3), 134–137. https://doi.org/10.55439/INS/vol3_iss3/459